

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi
prorektor prof. S. Mexmonov

2024 yil

STATISTIKA
FANINING O‘QUV DASTURI (SILLABUS)
(Kechki ta’lim uchun)

Bilim sohalari:

Ta’lim sohalari:

Ta’lim yo‘nalishi:

300000- Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
400000 – Biznes, boshqaruv va xuquq
310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
410000 – Biznes va boshqaruv
60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)
60410400-Moliya va moliyaviy texnologiyalar
60410500-Bank ishi va auditi
60411200-Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Toshkent – 2024-yil

FAN TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Fan kodi: Stat 205

Fan nomi: **Statistika**

Semestr/yil: **3/4-semestr/ 2024-2025 o'quv yili**

Kafedra: **"Iqtisodiy statistika" kafedrası**

Soatlar/kreditlar miqdori: 5 ECTS

Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Laboratoriya	Mustaqil ta'lim	Jami
30	30	0	90	150

Fan bo'yicha mashg'ulotlarning joylashuvi:

Auditoriya vaqti: Dars jadvaliga asosan

Prerekvizitlar: Ushbu fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun talabalar "Iqtisodiyot nazariyasi", "Amaliy matematika", "Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar" va tizimlar fanlari bo'yicha olingan bilimlari yetarli bo'lishi kerak.

Fan uchun mas'ul kafedra: "Iqtisodiy statistika" kafedrası

O'QITUVCHI TO'G'RISIDA MA'LUMOT

O'qituvchilar: Ma'ruza mashg'ulotlari i.f.n., dots. Ayubjonov Abbos Hosilovich, i.f.d (DSc), prof. Mamatkulov Bahtiyor Xalmuradovich, i.f.b.f.d. prof. Utanov Bunyod Quvondiqovich, i.f.b.f.d. dots. Akbarova Barno Shuxratovna, amaliy mashg'ulotlar – kat.oq.To'rayeva Zilola Turg'unovna, ass. Xusnuddinova Munisa Jamoliddin qizi.

Kafedra joylashgan joyi: TDIU, 3-o'quv binosi, 403-xona

Telefon: 71-239-28-06 ish telefoni

E-mail: abbosayubjonov@tsue.uz; b.mamatkulov@gmail.com;

barnoakbarova2019@gmail.com

Talabalarni qabul qilish vaqti: talabalar darsdan tashqari vaqtda o'qituvchi bilan uchrashish uchun o'qituvchi elektron pochta-siga xat bilan murojaat qilib uchrashuv vaqtini belgilab olishlari mumkin.

I. Fan tavsifi

Talabalar ushbu fanni o'qish natijasida quyidagi keng ko'lamli ko'nikmalarga ega bo'ladilar: statistik masalalarni echish masalalar ustida statistik kuzatish tashkil etish, statistik jadval va grafiklarni tushunarli qilib tuzish, guruhlash turlari, statistik tasniflash va uning o'ziga xos xususiyatlarini talqin qilish, MHT ning asosiy hisoblamalarini tuzish va ularning ko'rsatkichlarini aniqlash, mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarni aniqlash, o'rtacha miqdorlar va variatsiya ko'rsatkichlarini o'rganish, iqtisodiy hodisalar o'rtasida o'zaro bog'lanish uslubi-yatini o'zlashtirish, dinamika qatorlari va turlarini aniqlash, bozor iqtisodiyoti sharoitida statistik ko'rsatkichlarni baholash, tahlil va talqin etish, statistika amaliyotida qo'llaniladigan iqtisodiy indekslarni hisoblash, yalpi ichki mahsulot deflyatori va agregat indekslardan foydalanish, pul muomalasini ifodalaydigan

statistik ko'rsatkichlar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, aholi turmush darajasini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish.

Statistika – talabalarga statistikaning predmeti va metodi, uning ahamiyati va roli haqida chuqur bilimga ega bo'lish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi sodir bo'ladigan hodisalar to'g'risidagi ilmiy va tajribaviy gipotezalarni statistik tekshirish, statistika amaliyotida qo'llaniladigan hisobot shakllarini to'ldirish to'g'risida tasavvurga ega bo'lishni ta'minlash va ushbu sohada vujudga kelishi mumkin bo'lgan amaliy muammolarni yechishda statistik usullar hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishni o'rgatishni qamrab oladi.

II. Fanning maqsadi

- statistika fanining mohiyati va nazariy-uslubiy asoslarini tushuntirish;
- shaxsiy akademik faoliyat va uni samarali tashkil etish bo'yicha tushunchalar berish;
- statistika fani, metodi va amaliyoti sohasida chuqur kasbiy bilimlar va zaruriy o'quv malakasini, statistikada ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatni statistik baholashning o'ziga xos jihatlarini yoritib berish;
- talabalarga statistik usullardan foydalanish yo'llari yuzasidan tavsiyalar berish;
- talabalarda amaliy va vaziyatli topshiriqlarni bajarish va samaradorlik uchun javobgarlik hissinini uyg'otish;
- talabalarda mustaqil ta'lim olish jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish;
- talabalarining jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish;
- darslik yoki boshqa manbalarni mustaqil o'qish, olingan nazariy bilimlarga asoslanib tadqiqotlar o'tkazish va olingan ilmiy natijalarga tayanib taqdimotlar o'tkazish.

III. Ta'lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1. Statistika fanidan ommaviy ijtimoiy – iqtisodiy hodisa va jarayonlarni iqtisodiy statistik jihatdan tahlil qilish va izohlaydi.
2. Statistika fanidan olingan nazariy bilimlar asosida berilgan mavzuga oid bibliografik manbalarni to'plashi, guruhlashi va talqin eta olish jarayonini anglaydi.
3. Statistik usullardan foydalanish ko'nikmalarni rivojlantirish vositalaridan foydalanishni biladi.
4. Statistika faoliyatida yuritilayotgan elektron xisobotlarni to'ldirish ko'nikmalari va ularni shakllantirish jarayonining o'ziga xos jihatlarini tavsiflaydi.
5. Statistika faoliyati bo'yicha xisobotlarni qabul qilish va samaradorlik uchun javobgarlik hissi shakllanadi.
6. Statistika fanidan berilgan mustaqil ta'lim olish jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalari rivojlanadi.
7. Fan doirasida kreativ fikrlash va uni rivojlantirish yo'llarini bilib oladi.
8. Statistika mutaxassisligi uchun talab qilinadigan umumiy va kasbiy ko'nikmalarni bilib oladi.

IV. Ta'lim berish usullari:

- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;

- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
- jarayonli-yo‘naltirilgan ta’lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlar bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni yechish;
- so‘rov o‘tkazish;
- muammoni hal qilish.

V. Fanning tarkibiy tuzilishi:

T/r	Mavzular	Ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlar rejasi	Soatlar		
			Ma’ruza mashg‘ulot-lari	Amaliy va seminar mashg‘ulotlar	Mustaqil ta’lim
1.	Statistika faniga kirish	1. Statistika to‘g‘risida tushuncha 2. Statistika fani predmeti va uning o‘ziga xos xususiyatlari 3. Statistika fanining asosiy unsurlari va kategoriyalari 4. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida statistikaning vazifalari	2	2	6
2.	Statistik ma’lumotlarni to‘plash nazariyasi va amaliyoti	1. Statistik kuzatish tushunchasi, mohiyati va ahamiyati 2. Statistik kuzatish shakllari, turlari, usullari va ularning o‘ziga xos jihatlari 3. O‘zbekiston Respublikasida statistik kuzatishni tashkil etish hamda uning tarkibiy qismlari, vazifalari 4. Statistik kuzatish xatosi va uning turlari. Statistik kuzatish ma’lumotlarini qabul qilish va tekshirish usullari	2	2	6
3.	Statistik jamlash va guruhlash	1. Statistikada jamlash va guruhlashning mohiyati va vazifalari. 2. Statistik guruhlash usuli, uning ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o‘rganishdagi ahamiyati. 3. Guruhlash usuli yordamida echiladigan masalalar 4. Statistikada taqsimot qatorlarining mohiyati, tarkibiy unsurlari va turlari	2	2	6
4.	Statistik ma’lumotlarni jadval va grafiklarda tasvirlash	1. Statistik jadvallarning mohiyati, ahamiyati 2. Statistik jadval turlari. Oddiy,	2	2	6

		guruhiy va kombinatsion jadvallar 3. Statistika grafiklar tushunchasi, turlari, ahamiyati va tuzish qoidalari 4. Variatsion qatorlarni tasvirllovchi grafiklarning turlari: poligon, gistogramma, kumulyata, ogiva.			
5.	Tasviriy statistika ko'rsatkichlari	1. Statistika ko'rsatkichlarning mohiyati va ahamiyati. 2. Statistika ko'rsatkichlarning tasniflari va turlari. 3. Mutloq va Nisbiy miqdorlarning turlari 4. Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni statistik o'rganishda mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarni birgalikda (kompleks) qo'llash zarurligi	2	2	6
6.	O'rtacha miqdorlar	1. O'rtacha miqdorlar va ularning tasnifi. 2. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda o'rtachalarni qo'llash masalalari 3. Tuzilmaviy o'rtachalar turlari va ulardan statistik tadqiqotlarda foydalanish 4. Nisbiy joylashuvning miqdoriy o'lchovlar: kvartil; kvintil; desil; persentil.	2	2	6
7.	Statistikada variatsiyaning baholash usullari va dispersion tahlil asoslari	1. To'plamda biror belgi qiymatlarining variatsiyasi. 2. Ommaviy hodisa va jarayonlarning sifat aniqligi va xususiyatlari. 3. Variatsiyaning miqdoriy o'lchovlari. 4. Standart chetlanishni talqin qilish.	2	4	6
8.	Dispersiya. Dispersiya turlari	1. Dispersiya va standart chetlanish xossalari va ulardan foydalanish 2. Dispersiya va standart chetlanishni "shartli moment" va "yig'indi" usullarida hisoblash tartibi 3. Dispersiyalarni qo'shish qoidasi va uni ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganishda qo'llash 4. Empirik korrelyatsion munosabat	2	2	6
9.	Statistik tadqiqotlarda tanlab kuzatishning qo'llanilishi	1. Tanlab kuzatish mohiyati, uni qo'llash sabablari va afzalliklari. 2. Maqsad parametrlarini aniqlash va baholash. 3. Tanlama kuzatishda to'plam belgilari. 4. Tanlanmaning reprezentativligi va uni ta'minlaydigan tanlash usullari	2	2	6
10.	Tanlab kuzatish xatosi, tanlanma to'plam zaruriy miqdorini	1. Tanlab kuzatish turlari va xatosi. 2. Tanlab kuzatish natijalarini bosh	2	2	6

	aniqlash va tanlab kuzatish natijalarini tarqatish yo'llari	to'plamga tarqatish yo'llari. 3. . Bosh to'plam o'rtacha miqdori uchun ishonch intervali: Styudent (t) statistikasi. 4. Tanlanma to'plam zaruriy miqdorini aniqlash.			
11.	Dinamikani statistik o'rganish usullari	1. Dinamika qatorlari to'g'risida tushuncha. 2. Dinamika qatorlarining turlari. 3. Dinamika qatorlarini analitik tahlil qilish ko'rsatkichlari. 4. Dinamika qatorlarida o'rtachalarning darajasini hisoblash usullari.	2	2	6
12.	Dinamika qatorlarini qayta ishlashning statistik usullari	1. Dinamika qatorlarida trendni aniqlash va baholash. 2. Dinamika qatorlaridagi trendning mavjudligini aniqlash mezonlari. 3. Oraliqni kengaytirish, sirg'anchiqli o'rtacha, analitik tekmlash usullari. 4. Dinamika qatorlarida mavsumiylikni o'lchash.	2	2	6
13.	Iqtisodiy indekslar	1. Iqtisodiy indekslar tushunchasi, mohiyati, ahamiyati. 2. Individual va umumiy indekslar. 3. Laspeyres va Paashe indekslari. 4. O'rtacha arifmetik va o'rtacha garmonik indekslari.	2	2	6
14.	Statistika amaliyotida iqtisodiy indekslarni qo'llash yo'nalishlari	1. Hududiy indekslar va ularni tuzishda vazn tanlash masalasi. 2. Hududlararo taqqoslash indekslari va ularni tuzish masalalari. 3. Assortiment siljishlari va ularning ta'sirini indeks usuli yordamida tahlil qilish. 4. Natijaviy ko'rsatkich mutlaq qo'shimcha o'sishiga ta'sir etuvchi omillar rolini indeks tahlili.	2	2	6
15.	O'zaro bog'lanishlarni statistik o'rganish	1. Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi bog'lanishlarni statistik o'rganishning zarurligi va usullari. 2. O'zaro bog'lanishlar haqida tushuncha va ularning turlari: funksional va korrelyatsion bog'lanish. 3. Guruhlash, parallel qatorlarni taqqoslash, grafiklarda tasvirlash, dispersion va korrelyatsion-regression usullar. 4. Bog'liqlik zichligini o'rganish usulari: Fexner va Spirman korrelyatsiya koeffitsientlari.	2	2	6
	Jami		30	30	90

VI. Mustaqil ta'lim

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Statistika faniga kirish
2. Statistik ma'lumotlarni to'plash nazariyasi va amaliyoti
3. Statistik jamlash va guruhlash
4. Statistik ma'lumotlarni jadval va grafiklarda tasvirlash
5. Tasviriyl statistik ko'rsatkichlari
6. O'rtacha miqdorlar
7. Statistikada variatsiyani baholash usullari va dispersion tahlil asoslari
8. Dispersiya. Dispersiyalar turlari
9. Statistik tadqiqotlarda tanlanma kuzatishning qo'llanilishi
10. Tanlab kuzatish xatosi, tanlanma to'planning zaruriy miqdorini aniqlash va tanlab kuzatish natijalarini bosh to'plamga tarqatish yo'llari
11. Dinamikani statistik o'rganish usullari
12. Dinamika qatorlarini qayta ishlashning statistik usullari
13. Iqtisodiy indekslar
14. Statistika amaliyotida iqtisodiy indekslarni qo'llash yo'nalishlari
15. O'zaro bog'lanishlarni statistik o'rganish

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VII. Adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Statistika: darslik// Shodiyev X. va Xabibullayev I. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021.-454 b. . ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#)).

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Statistika bo'yicha praktikum: o'quv qo'llanma // I.X. Xabibullaev, X. A.Shodiev, B.Q.Utanov. –T.: «Nihol print» OK, 2022.-312 b. . ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#)).
2. Статистика: Учебник / Ё.А.Абдуллаев, З.Х.Тошматов, Е.А.Костюченко. – Т.: СП «Nihol print», 2021. -868 стр. . ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#)).
3. Статистика. Дарслик /Ё.Абдуллаев, Э.Эргашев, М.Икромов, А.Рўзиев, Б. Ишниязов. - Т.: “ “ нашрети, 2021, 271 бет. . ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#)).
4. Улитина Е.В. и др. Статистика торговли. Учебное пособие. – М.: Маркет ДС, 2019. – 312 стр. ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#))
5. Статистика торговли. Практикум. Учебное пособие. / Под ред. В.Н. Салина. – М.: КНОРУС, 2018. – 496 стр. ([Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud](#))

6. Статистика: учебник // Елисеева И.И. – М.: Юрайт, 2012. – 559 с. . (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).

Axborot manbaalari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
4. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti.
5. www.imv.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti.

VIII. Talabalar bilimini baholash

Ushbu fan (modul) bo‘yicha talabalar bilimini baholash semestr davomida o‘quv materiallarini (testlar va yozma ishlar) bajarishga asoslanadi. Dars davomida talabalar 100 ballik tizimda baholanadi. Shundan, talabaning dars mashg‘ulotlaridagi ishtiroki, mustaqil ishlar va joriy natijalar uchun 30 ball, oraliq nazorat uchun 20 ball, yakuniy nazorat uchun 50 ball beriladi. Yakuniy nazorat yozma shaklda amalga oshiriladi. Joriy, oraliq va nazorat vazifalari quyidagicha taqsimlanadi:

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH TARTIBI			
Reytingni baholash turlari	Maks. ball	Bajariladigan topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarilish muddati
joriy nazorat, shundan	20	O‘quv jarayonining jadvali bo‘yicha	
- Amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi	10	fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, keys stadi, kazus yoki fabula vaziyatli topshiriqlar, loyiha, kurs ishi, uy vazifalarini bajarishi	Fanning dars jadvalidagi auditoriya vaqtiga mos holda
Mustaqil ta‘lim, shundan	10	talabalar mustaqil ishlarini ikki yo‘nalishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etiladi	
1-mustaqil ish	5	mustaqil ta‘lim mavzularidan biri bo‘yicha Esse yoki tezis yozish (1000-1200 so‘zdan kam bo‘lmasligi lozim)	O‘quv jarayoni grafigiga muvofiq dars mashg‘ulotlarining oxirgi haftasigacha
2-mustaqil ish	5	mustaqil ta‘lim mavzularidan biri bo‘yicha loyiha ishini tayyorlash va himoya qilish	O‘quv jarayoni grafigiga muvofiq dars mashg‘ulotlarining oxirgi haftasigacha
Oraliq nazorat	30	yoza ish	O‘quv jarayoni grafigiga muvofiq

			oraliq nazorat haftasida HEMIS axborot tizimi orqali yoki bevosita o'quv auditoriyasida tashkil etiladi
Yakuniy nazorat	50	yozma ish	O'quv jarayoni grafigiga muvofiq yakuniy nazorat haftalarida
Jami	100		

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$YaB = JN + ON + YaN$$

bu yerda: JN – joriy nazorat; ON – oraliq nazorat; YaN – yakuniy nazorat.
bunda, $(JN + ON) \geq 30$ ball; $YaN \geq 30$ ball bo'lishi talab etiladi.

Eslatma: Joriy nazorat va oraliq nazorat uchun ajratilgan jami ballar (50 ball) ning kamida 60 foizi (30 ball)ni to'play olmagan talabaga yakuniy nazoratga kirishga ruxsat berilmaydi. Shuningdek, yakuniy nazoratda ishtirok etib, yakuniy nazorat uchun ajratilgan jami ball (50 ball) ning kamida 60 foizi (30 ball)ni to'play olmagan (ya'ni, qoniqarsiz baho olgan) talaba mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi va akademik qarzdor hisoblanadi.

IX. Akademik talablar

O'qituvchi va talaba o'trasidagi o'zaro munosabat samimiy va beg'araz bo'ishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o'quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O'qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo'lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshirig'i 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo'lmasa ish qabul qilinmaydi.

X. Ushbu o'quv dasturi (sillabus) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2024-yil "___" _____ dagi ___-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Ushbu o'quv dasturi (sillabus) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy statistika" kafedrasining 2024-yil "___" _____ dagi ___-sonli yig'ilishi bayonnomasi bilan ma'qullangan.

XI. Taqrizchilar

B.K.G'oyibnazarov – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Kadrlarni malakasini oshirish va statistik tadqiqotlari Instituti direktori, iqtisod fanlari doktori, professor

P.A.Allayarov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ekonometrika kafedrası mudiri, iqtisod fanlari doktori (DSc).

XII. Mazkur o'quv dasturi (sillabus) kunduzgi ta'lim shakli uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturi (sillabus) asosida kechki ta'lim shakli uchun ishlab chiqilgan

Akademik faoliyatni tashkil etish bo'limi boshlig'i



I.Choriyev

Kafedra mudiri



B.Utanov

Tuzuvchi



B.Mamatkulov
B.Utanov

